



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI



PRESS-RELIZ



2023-yil yanvar-iyun



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

2023-yil yanvar-iyun, dastlabki ma’lumotlar

*Demografiya statistikasi – ijtimoiy-iqtisodiy statistika sohalaridan biri bo‘lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig‘ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi;*

**Doimiy aholi soni** **36 372,3** ming kishi  
(2023-yil 1-iyul holatiga)

<b>Tirik tug‘ilganlar soni</b>	<b>Vafot etganlar soni</b>	<b>Aholining tabiiy o‘shishi</b>
<b>434 519</b> nafar 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>5,1</b> % ga ko‘paygan	<b>79 767</b> nafar 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>1,4</b> % ga kamaygan	<b>354 752</b> nafar 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>6,6</b> % ga ko‘paygan
<b>Tug‘ilish koeffitsiyenti</b>	<b>Vafot etish koeffitsiyenti</b>	<b>Tabiiy o‘shish koeffitsiyenti</b>
<b>24,2</b> ‰ 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>0,7</b> ‰ ga ko‘paygan	<b>4,4</b> ‰ 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>0,2</b> ‰ ga kamaygan	<b>19,8</b> ‰ 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>0,1</b> ‰ ga ko‘paygan
<b>Qayd etilgan nikohlar soni</b>	<b>Nikohdan ajralishlar soni</b>	<b>Mingta nikohga to‘g‘ri keladigan ajralishlar</b>
<b>98 665</b> ta 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>9,4</b> % ga kamaygan	<b>25 422</b> ta 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>3,3</b> % ga ko‘paygan	<b>257,7</b> ‰ Bunda har 1000 ta tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan nikohdan ajralishlar soni nikoh mustahkamligi koeffitsiyentini ifodalaydi.
<b>Nikoh tuzish koeffitsiyenti</b>	<b>Nikohdan ajralish koeffitsiyenti</b>	
<b>5,5</b> ‰ 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>0,7</b> ‰ ga kamaygan	<b>1,4</b> ‰ 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan o‘zgarmagan	2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>32,2</b> ‰ ga ko‘paygan
<b>Xorijdan ko‘chib kelganlar soni</b>	<b>Xorijga ko‘chib ketganlar soni</b>	<b>Migratsiya saldosi</b>
<b>1 581</b> kishi 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>1,8</b> barobarga ko‘paygan	<b>9 004</b> kishi 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>6,4</b> barobarga ko‘paygan	<b>-7 423</b> kishi 2022-yil yanvar-iyunga nisbatan <b>13,7</b> barobarga ko‘paygan
<b>Doimiy aholi sonining umumiy o‘shishi</b>	<b>+768,8</b> ming kishi	2022-yilga nisbatan <b>2,2</b> % ga ko‘paygan


## I BO‘LIM. DOIMIY AHOLI

*Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turgan, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi;*


### O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni

1-iyul holatiga

Doimiy aholi soni,  
ming kishi



O‘sinh sur‘ati



Aholi sonining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

Erkaklar



50,3 %

18 306,3

ming kishi

Ayollar



49,7 %

18 066,0

ming kishi

Shahar aholisining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

Erkaklar



50,1 %

9 296,2

ming kishi

Ayollar



49,9 %

9 261,3

ming kishi

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



51,0 %

18 557,5

ming kishi

Qishloq



49,0 % 17 814,8

ming kishi

Qishloq aholisining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

Erkaklar



50,6 %

9 010,1

ming kishi

Ayollar



49,4 %

8 804,7

ming kishi

2023-yil 1-iyul holatiga doimiy aholi soni 36 372,3 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 18 306,3 ming kishini, ayollar soni 18 066,0 ming kishini, shahar aholisi soni 18 557,5 ming kishini, qishloq aholisi soni 17 814,8 ming kishini tashkil etdi.


2023-yil 1-iyul holatiga shahar joylar doimiy aholisining 50,1 foizini erkaklar, 49,9 foizini esa ayollar tashkil etgan.

Shuningdek, qishloq joylar doimiy aholisining 50,6 foizini erkaklar, 49,4 foizini esa ayollar tashkil etganligi kuzatildi.

*Yosh – imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o‘lchangan, tug‘ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo‘lgan davr oralig‘iga tengdir. Masalan, insonni tug‘ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng;*

### Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi

2023-yil 1-yanvar holatiga




2023-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **2160,4** ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, **641,2** ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **2001,8** ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya’ni **715,3** ming kishini tashkil etgan.

*Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi – tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari soni. Bunda ushbu ko‘rsatkich hisoblangan yildagi yoshlar bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi;*

### Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2023-yil 1-yanvar holatiga




2023-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi aholisining tug‘ilishda kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **74,3** yoshni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich erkaklar uchun **72,1** yosh, ayollar uchun esa **76,6** yoshni tashkil etgan. Shuningdek, shahar joylarda **74,8** yosh, qishloq joylarda esa **73,6** yoshni tashkil etmoqda.



*Keksayish koeffitsiyenti* – BMT demograflari tomonidan keksayish jarayonini baholash maqsadida uch bosqichli mezon ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, 65 va undan yuqori yoshdagi aholi ulushi 4,0 foizdan kam bo‘lsa – demografik yosh, 4,0-7,0 foiz bo‘lsa – keksayish bo‘lag‘asida, 7,0 foizdan oshsa hudud aholisi demografik keksa hisoblanadi;

### O‘zbekiston Respublikasi aholisining keksayish koeffitsiyenti dinamikasi




2023-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida 65 va undan yuqori yoshdagi aholi salmog‘i **5,4** foizni tashkil etdi. Bu esa, xalqaro mezonlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi aholisi “demografik keksayish bo‘lag‘asida”gi mamlakatlar qatoriga kirishini anglatadi.

*Demografik bosim koeffitsiyenti* – 1000 ta mehnatga layoqatli yoshdagi (16-54 yoshli ayollar va 16-59 yoshli erkaklar) aholiga qancha mehnat yoshidan kichiklar (0-15 yoshlilar) va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar) to‘g‘ri kelishini anglatadi;

### Demografik bosim koeffitsiyenti

(yil boshiga 1000 ta mehnatga layoqatli aholiga nisbatan, kishi)




Umumiy demografik bosim koeffitsiyenti **720** kishini (har 1000 mehnatga layoqatli aholiga nisbatan), mehnat yoshidan kichiklar bosim koeffitsiyenti **534** kishini, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar bosim koeffitsiyenti **186** kishini tashkil etmoqda.

*Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti – bir ayoldan tug‘ilib reproduktiv davr (15-49 yosh) oxirigacha yetib borgan qizlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.*

*Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti nemis olimi R. Kuchinskiy tomonidan taklif etilgan va fanga kiritilgan.*

### O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha netto-koeffitsiyenti dinamikasi, nafar




Demograflar tomonidan netto-koeffitsiyentini baholash maqsadida uch bosqichli mezon ishlab chiqilgan. Agar netto-koeffitsiyenti **1,0** dan kam bo‘lsa, mamlakat demografik kamayish jarayonida, **1,0** ga teng bo‘lsa, demografik turg‘unlik va **1,0** dan oshsa, demografik o‘shish jarayonida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti **1,579** nafarni tashkil etmoqda. Bu esa, xalqaro mezonlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi demografik o‘shish jarayonida ekanligini anglatadi.

*Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi);*

### Aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil 1-iyul holatiga



2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **31,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


*Aholi zichligi – muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;*

**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi**  
*2023-yil 1-iyul holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi*



O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil 1-iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha **81,0** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,7** kishiga ortgan (2022-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **79,3** kishi). Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida **6695,4** kishi, Andijon viloyatida **780,0** kishi, Farg‘ona viloyatida **593,9** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati **9,6** kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **11,9** kishini tashkil etgan.


**Aholi zichligi dinamikasi**  
*1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi*



## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni


2023-yil 1-iyul holatiga

### Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi



Hududlar bo‘yicha doimiy aholisi soni eng ko‘p Samarqand viloyatida **4 159,1** ming kishi, Farg‘ona viloyatida **4 014,8** ming kishi, Qashqadaryo viloyatida **3 515,7** ming kishi, eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida **904,9** ming kishi, Navoiy viloyatida **1 065,3** ming kishi va Jizzax viloyatida **1 491,1** ming kishini tashkil etgan.

### Aholi ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan



Doimiy aholi sonining ulushi eng ko‘p Samarqand viloyatida **11,4 %**, Farg‘ona viloyatida **11,0 %**, Qashqadaryo viloyatida **9,7 %**, Andijon viloyatida **9,2 %** va Namangan viloyatida **8,3 %** ni tashkil etgan.

### Aholi ulushi nisbatan kam bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan



Doimiy aholisi sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida **2,5 %**, Navoiy viloyatida **2,9 %**, Jizzax viloyatida **4,1 %**, Xorazm viloyatida **5,4 %** va Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa **5,5 %** ni tashkil etgan.




## II BO‘LIM. TUG‘ILISH


### O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan tug‘ilishlar

2023-yil yanvar-iyun

Yanvar-iyun oylarida  
tug‘ilishlar soni, *ming kishi*




O‘sish sur‘ati



Jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

#### O‘g‘il bolalar



#### Qiz bolalar



Shahar va qishloq joylar  
bo‘yicha taqsimlanishi

#### Shahar



#### Qishloq




2023-yil yanvar-iyun oylarida tirik tug‘ilganlar soni **434,5** ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni **225,4** ming kishini, qiz bolalar soni **209,1** ming kishi, tirik tug‘ilganlar soni shahar joylarida **225,6** ming kishini, qishloq joylarida **208,9** ming kishini tashkil etdi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,  
*kishi/ulushi*

#### O‘g‘il bolalar


#### Qiz bolalar



*Tirik tug‘ilish – nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishlaridan biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim;*

### Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-iyun




2023-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarni chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,7 %** ni, 2 nafar tug‘ilganlar **2,2 %** ni, 3 nafar va undan ortiq tug‘ilganlar **0,1 %** ni tashkil etdi.

*Tug‘ilganlar sonini aniqlashda Oila kodeksiga muvofiq, tug‘ilgan chaqaloqning onasi yoki otasining doimiy yashash joyiga qarab tug‘ilgan hududi aniqlanadi hamda o‘sha hududning aholisi soniga qo‘shiladi;*

### Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi


2023-yil yanvar-iyun



2023-yil yanvar-iyun oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **9,6 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **83,7 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **6,7 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **36,5 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **62,3 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,2 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.


**O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar**  
2023-yil yanvar-iyun

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti, kishi**




Hududlar bo‘yicha tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori Surxondaryo viloyatida **27,4** promille, Jizzax viloyatida **26,8** promille, Qashqadaryo viloyatida **26,3** promille, eng kam ko‘rsatkich Xorazm viloyatida **19,3** promille Qoraqalpog‘iston Respublikasida **19,8** promille va Buxoro viloyatida **20,3** promilleni tashkil etgan.

**O‘sish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da**



Tug‘ilishlarning o‘sish sur‘ati eng yuqori darajasi Toshkent shahrida **113,5 % ga**, Xorazm viloyatida **108,0 % ga**, Jizzax viloyatida **107,7 % ga**, Farg‘ona viloyatida **106,9 % ga** va Namangan viloyatida **106,1 % ga** teng bo‘lgan.

**O‘sish sur‘ati nisbatan past bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan % da**




Tug‘ilishlarning o‘sish sur‘ati eng past darajasi Toshkent viloyatida **97,1 %**, Sirdaryo viloyatida **100,9 %**, Andijon viloyatida **103,1 %**, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **103,7 %** va Samarqand viloyatida **104,0 %** kuzatilgan.

### III BO‘LIM. VAFOT ETGANLAR


#### O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar

2023-yil yanvar-iyun

Yanvar-iyun oylarida vafot etganlar soni, ming kishi




O‘shish sur‘ati




Jinslar bo‘yicha taqsimlanishi

#### Erkaklar



#### Ayollar



Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

#### Shahar




#### Qishloq



2023-yil yanvar-iyun oylarida vafot etganlar soni 79,8 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 44,1 ming kishini, ayollar soni 35,7 ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida 42,4 ming kishini, qishloq joylarida 37,4 ming kishini tashkil etdi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi

#### Erkaklar



*O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari;*

### **O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi**


2023-yil yanvar-iyun, kishi



2023-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **51,9** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **11,5** foizi – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **9,5** foizi – o‘simtalardan, **4,4** foizi – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **3,6** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **1,4** foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **17,7** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

### **O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi**

2023-yil yanvar-iyun




2023-yil yanvar-iyun oylarida vafot etganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar **23,8** % ni, mehnatga layoqatli yoshdagilar **20,7** % ni va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar **55,5** % ni tashkil etgan.



## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar

2023-yil yanvar-iyun

### Hududlar kesimida o‘limlar soni va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha vafot etish koeffitsiyenti eng yuqori Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5,0 promille, Surxondaryo viloyatida 4,8 promille va Sirdaryo viloyatida 4,7 promille, eng kam ko‘rsatkich Navoiy viloyatida 3,7 promille, Buxoro, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 4,2 promilleni tashkil etgan.

### O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



O‘limlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida 111,4 % ga, Sirdaryo viloyatida 110,5 % ga, Jizzax viloyatida 106,5 % ga, Navoiy viloyatida 105,3 % ga va Surxondaryo viloyatida 103,1 % ga teng bo‘lgan.

### O‘shish sur‘ati nisbatan past bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da




O‘limlarning o‘shish sur‘ati nisbatan past darajasi Toshkent shahrida 84,8 % da, Qashqadaryo viloyatida 94,1 % da, Farg‘ona viloyatida 94,4 % da, Buxoro viloyatida 97,7 % da va Xorazm viloyatida 97,7 % da deb topilgan.

## IV BO‘LIM. NIKOHLAR


### O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan nikohlar

2023-yil yanvar-iyun

Yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni, ming birlik




O‘shish sur‘ati



2023-yil yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **98,7** ming birlikni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **10,2** birlikka kamaygan. 2020-yilning mos davri bilan taqqoslanganda **23,1** birlikka ko‘payganligi kuzatildi.

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



2023-yil yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **98,7** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **49,4** mingtani (**50,0 %**), qishloq joylarida **49,3** mingtani (**50,0 %**) tashkil etgan.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, birlik/ulushi

#### Shahar

#### Qishloq



*Nikoh* – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi;

### Nikohlanganlarning o‘rtacha yoshi

2023-yil yanvar-iyun




2023-yil yanvar-iyun oylari davomida qayd etilgan nikohlarda ayollarning o‘rtacha yoshi **23,3** yoshni, erkaklarning o‘rtacha yoshi esa **27,9** yoshni tashkil etgan. Qayd etilgan nikohlarning eng katta ulushi 25 yoshgacha bo‘lgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohlarning **74,6** foizini tashkil etgan.

*Nikoh yoshi* – O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda, nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin;

### Nikohlanuvchilarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-iyun, birlik



## O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qayd etilgan nikohlar

2023-yil yanvar-iyun

### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo‘yicha nikoh koeffitsiyenti eng yuqori Xorazm viloyatida **7,9** promille, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **6,5** promille, Surxondaryo viloyatida **6,1** promille, eng past ko‘rsatkich Namangan viloyatida **4,4** promille, Andijon va Jizzax viloyatlarida **4,8** promilleni tashkil etgan.

### O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Nikohlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Xorazm viloyatida **95,1** % ga, Toshkent shahrida **94,6** % ga, Farg‘ona viloyatida **94,4** % ga, Navoiy viloyatida **93,3** % ga va Qashqadaryo viloyatida **92,6** % ga teng bo‘lgan.

### O‘shish sur‘ati nisbatan past bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da




Nikohlarning o‘shish sur‘ati nisbatan past darajasi Toshkent viloyatida **83,5** % da, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **87,7** % da, Jizzax viloyatida **87,8** % da, Andijon viloyatida **87,8** % da va Sirdaryo viloyatida **88,9** % da ekanligi qayd qilingan.

V BO‘LIM. NIKOHDAN AJRALISHLAR


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

2023-yil yanvar-iyun

Yanvar-iyun oylarida nikohdan ajralishlar soni, ming birlik




O‘shish sur‘ati



2023-yil yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni **25,4** ming birlikni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **12,6** mingtaga yoki **2,0** barobarga ko‘payganligi kuzatildi.

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



2023-yil yanvar-iyun oylarida nikohdan ajralishlarning soni **25,4** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **15,3** mingtani, (**60,0 %**), qishloq joylarida **10,1** mingtani (**40,0 %**) tashkil etdi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, birlik/ulushi

Shahar

Qishloq






*Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarining to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh sud hal qiluv qarorlari asosida yoki FHDYO ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi;*

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-iyun

51,9 %



**Farzandsiz ajrashganlar**

2023-yil yanvar-iyun oylarida farzandsiz nikohdan ajralishlar soni **6 730** tani tashkil etgan.

2023-yil yanvar-iyun oylarida 1 nafar farzand bilan nikohdan ajralishlar soni **13 186** tani tashkil etgan.

26,5 %



**1 nafar farzand bilan ajrashganlar**

21,6 %



**2 va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar**

2023-yil yanvar-iyun oylarida 2 va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajralishlar soni **5 505** tani tashkil etgan.

## Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi

2023-yil yanvar-iyun

**Erkaklar**

**37,7**  
yosh




**Ayollar**

**33,2**  
yosh

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2023-yilning yanvar-iyun oylarida erkaklar uchun **37,7** yoshni, ayollar uchun **33,2** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshga-cha bo‘lgan ajralayotgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohdan ajrashganlarning **62,3 %** ini tashkil etgan.

**O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar**  
2023-yil yanvar-iyun

**Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik**




Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida **2,0** promille, Sirdaryo viloyatida **1,8** promille, Andijon viloyatida **1,7** promille, eng kam ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida **1,1** promilleni tashkil etgan.

**O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da**



Nikohdan ajralishlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Xorazm viloyatida **130,0 %** ga, Farg‘ona viloyatida **124,0 %** ga, Navoiy viloyatida **114,3 %** ga, Jizzax viloyatida **112,5 %** ga va Andijon viloyatida **112,0 %** ga teng bo‘lgan.

**O‘shish sur‘ati nisbatan past bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da**




Nikohdan ajralishlarning o‘shish sur‘ati nisbatan past darajasi Buxoro viloyatida **85,7 %** da, Sirdaryo viloyatida **88,9 %** da, Qashqadaryo viloyatida **90,0 %** da, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **90,9 %** da va Samarqand viloyatida **92,3 %** da ekanligi qayd etilgan.

## VI BO‘LIM. MIGRATSIYA


### O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

2023-yil yanvar-iyun

Yanvar-iyun oylarida jami ko‘chib kelganlar soni, ming kishi




O‘shish sur‘ati




Jinslar kesimida taqsimlanishi

#### Erkaklar




#### Ayollar



Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

#### Shahar




#### Qishloq



2023-yil yanvar-iyun oylarida ko‘chib kelganlar soni 106,3 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 44,3 ming kishini, ayollar soni 62,0 ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida 81,9 ming kishini, qishloq joylarida 24,4 ming kishini tashkil etdi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi


#### Erkaklar



*Ko‘chib kelganlar soni* – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;

## Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-iyun



O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan 36,8%), Qozog‘iston Respublikasi (24,2%), Tojikiston Respublikasi (13,1%), Qirg‘iz Respublikasi (5,4%), Turkmaniston Respublikasi (1,8%) va boshqa mamlakatlar (18,7%) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## Ko‘chib kelganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-iyun




2023-yil yanvar-iyun oylarida ko‘chib kelganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 8,9% mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 83,2% mehnatga layoqatli yoshdagilar va 7,9% mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

2023-yil yanvar-iyun

### Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida **31,3** promille, Navoiy viloyatida **9,0** promille, Toshkent viloyatida **8,8** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **0,8** promille, Andijon viloyatida **1,9** promille va Farg‘ona viloyatida **2,2** promilleni tashkil etgan.

### O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Ko‘chib kelganlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Buxoro viloyatida **130,0 %** ga, Samarqand viloyatida **121,3 %** ga, Xorazm viloyatida **108,3 %** ga, Surxondaryo viloyatida **108,2 %** ga va Navoiy viloyatida **102,2 %** ga teng bo‘lgan.

### O‘shish sur‘ati nisbatan past bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da




Ko‘chib kelganlarning o‘shish sur‘ati nisbatan past darajasi Jizzax viloyatida **85,7 %** da, Qashqadaryo viloyatida **88,0 %** da, Sirdaryo viloyatida **88,6 %** da, Toshkent shahrida **89,9 %** da va Andijon viloyatida **93,9 %** da qayd etilgan.




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar  
2023-yil yanvar-iyun

Yanvar-iyun oylarida jami ko‘chib ketganlar soni, ming kishi




O‘sish sur‘ati




Jinslar kesimida taqsimlanishi

Erkaklar




Ayollar



Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



Qishloq




2023-yil yanvar-iyun oylarida ko‘chib ketganlar soni 113,7 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 48,0 ming kishini, ayollar soni 65,7 ming kishi, ko‘chib ketganlar soni shahar joylarida 78,6 ming kishini, qishloq joylarida 35,1 ming kishini tashkil etdi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi


Erkaklar

Ayollar




*Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan chiqarishda tuziladigan ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;*

### Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi 2023-yil yanvar-iyun



O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami 78,6 %), Rossiya Federatsiyasi (17,6 %), Qirg‘iz Respublikasi (0,5 %), Turkmaniston Respublikasi (0,3 %), Tojikiston Respublikasi (0,2 %) va boshqa mamlakatlar (2,8 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

### Ko‘chib ketganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi 2023-yil yanvar-iyun




2023-yil yanvar-iyun oylarida ko‘chib ketganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 9,3 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 82,3 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 8,4 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

2023-yil yanvar-iyun

### Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida **23,8** promille, Navoiy viloyatida **10,8** promille, Toshkent viloyatlarida **9,0** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **1,4** promille, Andijon viloyatida **2,4** promille va Farg‘ona viloyatida **2,8** promilleni tashkil etgan.

### O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Ko‘chib ketganlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida **170,8** % ga, Navoiy viloyatida **123,9** % ga, Toshkent shahrida **114,7** % ga, Buxoro viloyatida **113,0** % ga va Xorazm viloyatida **109,3** % ga teng bo‘lgan.

### O‘shish sur‘ati nisbatan past bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Ko‘chib ketganlarning o‘shish sur‘ati nisbatan past darajasi Toshkent viloyatida **71,7** % da, Namangan viloyatida **84,6** % da, Qashqadaryo viloyatida **86,2** % da, Jizzax viloyatida **88,6** % da va Sirdaryo viloyatida **92,5** % da qayd etilgan.



**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar)da istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayiriladi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.



**Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi**

Tel: 71 203 80 00 (ichki 1240)



[z.yuldoshev@stat.uz](mailto:z.yuldoshev@stat.uz)

PRESS-RELIZ

